

## AMIRIY- DAVLAT ARBOBI VA SHOIR SIFATIDA

Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik  
kafedrası o‘qituvchisi Abdulhamidova Hikmatoy Ahrorjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya  
fakulteti O‘zbek tili yo‘nalishi

23.90A-guruh talabasi Abdumo‘minova Qunduzabonu

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Umarxon (Amiriy)ning Qo‘qon xonligidagi siyosiy mavqei, uning adabiy jarayondagi o‘rni hamda XIX asr boshlarida shakllangan Qo‘qon adabiy muhitiga qo‘shgan ulkan hissasi tahlil qilinadi. Amiriy tashabbusi bilan saroyda yuzaga kelgan adabiy-ma‘rifiy muhitning asosiy tamoyillari, unga jamlangan shoir va tarixchilarning faoliyati yoritiladi. Amiriy homiyligida yaratilgan asarlarning tarixiy va adabiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Amiriy lirikasining badiiy xususiyatlari, uning g‘azallarida ko‘ngil kechinmalarining tasviri, mubolag‘a, xalqona iboralar va poetik obrazlarning qo‘llanishi, qofiya tizimining uyg‘unligi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amiriy, adabiy muhit, nazira, tatabbu’, poetika, xalqona iboralar, g‘azallari tahlili.

Muhammad Said Amir Umarxon (Amiriy) –Qo‘qon xonligidagi o‘zbek Min sulolasining yettinchi hukmdori. Olimxon unga Farg‘ona hokimligini 1807-1808-yillarda topshirgan va shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Akasi Olimxonning o‘limidan so‘ng 1809-yilda o‘ldirilganidan keyin 23-yoshida hukmdor deb e‘lon qilinadi.

Amir Umarxon va Nodirabegimning tashabbusi bilan XIX asrda Qo‘qon adabiy muhiti yaratildi. Ularning tinimsiz harakati tufatli saroyda eng iste‘dodli shoirlar, tarixchilar va adabiyotshunoslar to‘plangan. Adabiy muhitning rivoj topishida eng muhim sabablardan biri Umarxonning Amiriy taxallusi bilan ijod qilishi bo‘lgan.

Vadud Mahmudning “Bu kungi she‘rlarimiz va san‘atkorlarimiz” maqolasida Amiriyni “ilohiy tarannumlar sohibi”, deya ta‘rif etiladi. Vadud

Mahmudgacha va undan keyin ham Umarxon she'riyatiga bunday ajib va balandmaqom baho berilmagan. Unda V. Mahmud yangi o'zbek she'riyatiga, to'la ma'noda, mumtoz shariyatimiz maktab bo'la olishini uqdirgan va o'z qarashlarini Amiriy nazmi bilan asoslashga tortinmagan.

Amir Umarxon davridagi Qo'qon adabiy muhitida ko'plab asarlar uning homiyligida yaratilgan. Jumladan, Abdulkarim Fazliy, Mushrif va Xotifning birgalikda yaratgan "Majmuai shoiri Umarxoniy" tazkirasi, Fazliyning "Umarnoma" tarixiy masnaviysi, Mushrifning "Shohnomai Nusratpayom", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari shular sirasiga kiradi. Yana biri "Muhabbatnoma" qo'lyomasi Amiriyning buyrug'i bilan hijriy 1234(mil.1818-1819) yil to'rt xattot: Tursun Muhammad, Mirzo Rahimqul, Muhammad Yusuf va Bobo Mir Mirzo tomonidan Qo'qon shahrida kitob qilingan.

Amiriy lirikasini inson xarakterining o'ziga xos ifodasi deyish mumkin. Sababi, shoir ma'shuqani kuylaydimi, uning ezilgani yoki kutilgani qanday holat bo'lishidan qat'iy nazar barchasida ko'ngil mulkini tahlil qiladi. Amiriy g'azallarida ma'shuqaning sur'atini tasvirlashda mubolag'a usulidan keng foydalaniladi. Amiriy yaratgan adabiy muhit va uning lirikasi jozibasi bilan nafaqat zamondosh balki, keyingi avlod ijodkorlarni ham o'ziga jalb etib kelgan. Akmal, Fazliy, Ado, Vazir, Xijlat, G'oziy, Mushrif, Maxmur, Xotif, Nola, Hoziq, Ma'dan, Nodira, Uvaysiy kabi o'nlab shoirlar Amiriy g'azallariga taqlid qilib, nazira va tatabbu'lar qilishgan. "Majmuai shoiri Umarxoniy" tazkirasining o'zida bunday naziralarning oltmishdan ortig'i keltiriladi. Bunga misol qilib "Ey niholi sarvqaddi gulbuni bog'i safo..." deya boshlanuvchi g'azaliga yigirmadan ortiq tatabbu' qilingan. Bu Amiriyning boshqa zamondoshlariga o'rnak va o'rganishga arzigulik asarlar qolganiga nishonadir. Amiriyning g'azallari ko'zdan kechirilsa, xalqona ibora va hikmatlar uchraydi: "firoqida behidek sarg'ayib", "bo'lsun salomat boshingiz", Amiriy o'zbekcha so'zlar qo'llanilishiga alohida ahamiyat bergan. Lirik she'rlarida yorni afsonaviy jannat hurlaridan yuqori qo'yadi, shu dunyo go'zalini, real borliqni ulug'laydi. Ko'pincha an'anaviy poetik obrazlardan

foydalanish bilan birga yangi original tasvirlar yaratishga intilgan. Uning gʻazallaridagi qofiyalar bir-biriga juda uygʻun holatda qoʻllanilgan:

Tushti to zulfu yuzingdin koʻnglum ichra *tobu tab*,  
Shuʻlai hasrat bila, ey shoʻx, oʻrtondim *tutab*,  
Shodmon oʻldum, mengo yeti payomi *vaslidin*,  
Ketti shomi furqati gʻam, keldi ayyomi *tarab*,  
Olmadi ul shoʻx tosh naqdila koʻnglum *shishasin*,  
Kam baho oʻldi magarkim, jinsi bozori *Xalab*.

Yorning sochi (zulf) va yuzi (chehra)ning jozibasi oshiq koʻngliga olovdek issiq tuygʻular soladi. Bu goʻzallik oshiqning koʻnglini “tobu tab” — kuchli ehtiros va iztirob oloviga oʻraydi. Oshiqlik olovi uni “tutab”, yaʼni sekin-sekin kuydirib boradi. Amiriy birinchi baytdanoq oshiqning ruhiy holatini oshkor qiladi:

goʻzallik beradi, ammo shu goʻzallik hasrat olovini ham yoqadi. Visol — uchrashuv haqida kelgan xabar oshiqni birdan quvontiradi. Ayriliqning zulmatli tunlari (“shomi furqat”) ketadi, oʻrniga shodlik, quvonch kunlari (“ayyomi tarab”) keladi. Shoʻx yor oshiqni xafa qilmoqchi boʻlib “tosh naqd” (qattiq soʻz, rad javob, beparvolik) bilan koʻnglini sindirmoqchi boʻladi. Ammo oshiqning “koʻngil shishasi” sinmaydi. Sababi yordan kelgan ranj — arzon toshga oʻxshaydi, Xalab bozoridagi qadrsiz mollardek qiymatsiz. Xalab bozori — tarixiy mashhur savdo markazi, bunda sifatlar xilma-xil, arzon tovarlar koʻp boʻlganligi bilan tanilgan. Amiriy yorga kinoya qiladi: Sen bergan ranj ogʻir emas — men uchun qadring ulkan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Umarxon davrida uning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda adabiyotga boʻlgan yuksak eʼtibori natijasida Qoʻqon saroyi adabiy-maʼrifiy markazga aylangan. Amiriy ijodi oʻzbek mumtoz sheʼriyati taraqqiyotining muhim bosqichi boʻlib, uning poetik merosi keying avlod adabiy tafakkuriga ham kuchli taʼsir koʻrsatgan. Shoir yaratgan adabiy muhit, badiiy uslub va estetik qarashlar oʻzbek adabiyotining boy merosida alohida oʻrin tutadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Qayumov, A. Amiriy – Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi // “Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-T: Tamaddun, 2017.
2. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi. –Farg‘ona, 2021.
3. Juraboev, O. Davr adabiyotida Amir Umarxon fenomeni.
4. R. Orzibekov. O‘zbek adabiyot tarixi. Toshkent: Avto-nashr